

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyul holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **908** taga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **4,5 %** foizni tashkil etdi
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **856** taga oshgan.


2018 yilning yanvar-iyul oyida Namangan viloyatida 2027 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,8 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 % ga oshgan hamda ularning soni 270 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 989 ta (5.0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 20941 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (38,6%), Chust tumanida (8,0%), Namangan (7,2%) va Uychi (6,0) tumanlarida kuzatilmoqda.


## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
<b>Namangan viloyati</b>	<b>21928</b>	<b>100,0</b>	<b>20941</b>	<b>100</b>
Namangan shapar	8543	39,0	8089	38,6
Mingbuloq tumani	881	4,0	872	4,2
Kosonsoy tumani	1246	5,7	1199	5,7
Namangan tumani	1576	7,2	1512	7,2
Norin tumani	867	4,0	841	4,0
Pop tumani	1176	5,4	1098	5,2
To'raq'org'on tumani	1338	6,1	1255	6,0
Uychi tumani	1267	5,8	1254	6,0
Uchq'org'on tumani	1126	5,1	1104	5,3
Chortoq tumani	1083	4,9	1036	4,9
Chust timani	1768	8,1	1675	8,0
Yangiq'org'on tumani	1057	4,8	1006	4,8


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,5 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 4,5 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,7 f.p. kamaygan


2018 yil yanvar-iyul holatiga 2027 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Namangan shaxrida (692 ta), Chust (163 ta), Uychi (147 ta), Mingbuloq (130 ta), Uchq'org'on (123 ta), Namangan (125 ta), To'raq'org'on (127 ta), Norin (120 ta), Pop (108 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam esa Kosonsoy (102 ta), Chortoq (98 ta), Yangiq'org'on (92 ta), tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (558 ta), boshqa turlarda (501 ta), savdoda (420 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (193 ta) va qurilishda (138 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (28 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (50 ta), yashash va ovqatlanishda (66 ta) hamda tasish va saqlashda (73 ta) tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsata yotgan korxonalarining ulushi savdoda (-1,4 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,1 f.p), qurilishda (-0,2 f.p.) va kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,2 f.p.), hamda tashish va saqlashda (+0,1 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.08.2017 y.	01.08.2018 y.	farqi (+/-)
Savdo	24,9	23,5	-1,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,4	2,3	-0,1
Qurilish	7,5	7,3	-0,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,4	7,4	
Sanoat	18,6	19,8	1,2
Boshqa turlari	30,6	30,6	
Tashish va saqlash	3,5	3,6	0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,0	4,0	
Axborot va aloqa	1,5	1,5	

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 avgust holatiga 16718 dan oshiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5795 ta, oilaviy korxonalar – 296 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–10087 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari–28 tani va boshqa tijorat korxonalar 512 tani tashkil etadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 111 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga yoki 15,6 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 79 tasi qo'shma korxonalar, 32 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 120 tani tashkil etib ularning asosiy qismi Namangan shahar 53 ta (44,2%), Uychi tumanida 10 ta (8,3%), Pop tumanida 9 ta (7,5%), Kosonsoy va Chortoq tumanlarida 8 tadan (6,7 %), Namangan tumanida 6 ta (5,0 %) Chust tumanida 7 tadan (5,8 %), To'raq'org'on tumanda 6 ta (5,0%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Yangiqo'rg'on tumani 5 ta (4,2 %), Norin tumanida 4 ta (3,3%), Uchq'org'on tumanida 3 ta (2,5%), 1 ta (0,8%) Mingbuloq tumani hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 88 ta (73,0%), savdoda 12 ta (9,9%), boshqa turlarida esa 10 ta (8,1%) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (0,9%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (4,5%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 tadanni (1,8%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlash faoliyat turiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 15 tani tashkil qilgan. Bu korxonalar Namangan shahar, Kasonsoy, Namangan, Norin, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida ro'yhatdan o'tganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16620 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 3.3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6891 tasi (41,5 %) Namangan shahriga, 1335 tasi (8,0 %) Chust tumaniga, 1270 tasi (7,6 %) Namangan tumaniga, 987 tasi (5,9 %) Uychi tumaniga hamda 967 tasi (5,8 %) To'raqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16477 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4895 tasi (29,5%)—savdoda, 4112 tasi (24,7 %) - sanoatda, 1516 tasi (9,1 %) - qurilishda, 1525 tasi (9,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 825 tasi (5,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 752 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 301 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 383 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2311 tasi (13,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 1645 taga kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2.4 foizga kam. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida (591 ta), Chust (131 ta), Uychi (126 ta) va Namangan tumanida (97 ta) To'raqo'rg'on tumanida (111 tadan) tashkil etilgan. Eng kam Uchq'org'on va Mingbuloq tumanlarida (90 tadan) Norin (93 ta), Pop (81 ta), Yangiq'org'on (76 ta) hamda Choroq tumanlarida (73 ta) tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (558 ta), savdoda (420 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (191 ta) va qurilishda (138 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa yashash ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (66 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (50 ta) hamda axborot va aloqada (28 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,5 % savdoda, 19,8 % sanoatda, 7,3 % qurilish, 7,4% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 iyul holatiga 301 tani tashkil etib, ulardan 296 tasi yoki 98,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **1.8%**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 47.6 % yoki 141 tasi sanoat, 16,6 % yoki 49 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12.5 % yoki 37 tasi savdo, 9,8 % yoki 29 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 2 tasi qurilish, 1.4 % yoki 4 tasi axborot va aloqa, 2,0 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,5 % yoki 28 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Namangan viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **M.Izzatillayev**  
(0369) 227-84-96